



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

QODIROV JASURBEK SHAROFITDINOVICH

**Davlat-xususiy sherikchiligi va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtaсидаги
o'zaro bog'liqlik: iqtisodiy-statistik modelni yaratish muammolari**

Hozirgi jadal rivojlanayotgan hamda jahonning ko'plab zamonaviy bozor iqtisodiyoti tizimi asosida amal qiluvchi mamlakatlarda davlat va xususiy sektor o'rtaсидаги iqtisodiy munosabatlarda sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotida yangi institutsional tuzilmani shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Ushbu jarayonlarning asosiy mohiyati ikki yo'nalishda o'z ifodasini topadi¹:

1. Tadbirkorlikdan olinadigan foydaning milliy daromaddagi ulushini o'sib borishi hamda qo'shimcha qiymatni taqsimlash nisbatining o'zgarishi;
2. Iqtisodiy islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, shuningdek iqtisodiy o'sishga doir mavjud to'siqlarning kamayishining kuzatilishi.

Yuqorida ta'kidlangan o'zgarishlar faoliyatning deyarli barcha sohalarini, xususan, davlat boshqaruvi va tadbirkorlik subyektlarini qamrab oladi. Ta'kidlash joizki, mazkur o'zgarishlar ishlab chiqarish tarmog'ining globallashuvi, kapital sohalarida baynalminallahuvi, hududlar va davlatlar o'rtaсиda raqobat kurashining kuchayishi hamda hamkorlik munosabatlarini takomillashib borishi natijasida zamonaviy jamiyatning yangicha iqtisodiy munosabatlar shakllanishiga o'z ta'sirini

¹Utemuratova G.X., Xizmat ko'rsatish sohasida davlat xususiy sherikchiligining shakllari, modellari va mexanizmlari./ Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansy 2021, 10(146)

ko‘rsatadi. Natijada iqtisodiyotning innovastion rivojlanishi sharoitida jahoning ko‘plab mamlakatlar hukumati davlat-xususiy sherikligini (DXSh) kengaytirishga alohida urg‘u bermoqda, xususan, Respublikamizda ham bu jarayon amalda kuzatilmoxda. Davlat-xususiy sherikchiligning turli xil shakllari tez sur’atlar bilan rivojlanishi ularning iqtisodiyotdagি soha va tamoqlarida keng ko‘lamda qo‘llanilishi hamda o‘zaro hamkorlikning DXSh shaklini bozor iqtisodiyotining muhim xususiyati sifatida tan olish imkonini beradi.

Agar biznes va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning boshqa shakllarida xususiy tadbirkorlik faqat loyihani moliyalashtirish jarayonida yoki faqat obyektni qurish va foydalanish jarayonida ishtirok etsa, DXShda u loyihani amalgalashirishning barcha bosqichlarida ishtirok etadi. Binobarin, DXSh o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu sherikliklarni mustaqil iqtisodiy kategoriya sifatida ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. DXSh ning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat²:

- loyihalarni moslashtirish xususan, mahalliy sharoit, vaqtinchalik, hududiy sharoit va boshqalarga. Ular muayyan obyekt (yo‘llar, uy-joy kommunal xo‘jaligi va boshqalar) uchun yaratilgan bo‘lib, ular belgilangan muddatda bajarilishi;
- hamkorlik modeli hamkor loyihalar tomonidan hal qilinishi kerak bo‘lgan asosiy maqsad va vazifalarni ko‘rsatilishishi;
- loyihani moliyalashtirishning o‘ziga xos shakllari: davlat moliyaviy resurslari bilan to‘ldirilgan xususiy investitsiyalar orqali bir nechta ishtirokchilarining qo‘shma investitsiyalarini nazarda tutilishi;
- har bir shartnoma yoki konsessiya uchun bir nechta potensial ishtirokchilar o‘rtasida kurash bo‘lganda, raqobat muhitining majburiy mavjudligi;
- sheriklar o‘rtasida mas’uliyatni taqsimlashning o‘ziga xos shakllari: davlat loyiha maqsadlarini jamoat manfaatlari nuqtai nazaridan narx va sifat parametrlarini belgilab, loyihalarning amalgalashirishini nazorat qiladi hamda xususiy sherik loyihalarining turli bosqichlarida operatsion faoliyatni o‘z zimmasiga olishi;

² <https://dislib.ru/ekonomika/22833-2-razvitie-gosudarstvenno-chastnogo-partnerstva-sovremennoy-ekonomike.php>

- iste'molchilarga xizmat ko'rsatish tizimini ishlab chiqish, moliyalashtirish, qurish va foydalanish, boshqarish va tizimni amaliy amalga oshirishi;


– taraflarning tegishli kelishuvlari asosida bitim taraflari o'rtasida risklarni taqsimlanishi.

Shuningdek, hozirgi kunda xususiy lashtirish imkonи bo'lмаган, lekin xususiy sarmoyaga ehtiyoj sezilgan hududlarda davlat-xususiy sheriklik muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. DXSh samaradorligining muhim shartlari biznesning amalga oshirilayotgan loyihadagi ishtiroki darajasi va iqtisodiy faollilikning sezilarli darajada saqlanib qolishi va davlat tomonidan ba'zi mulk huquqidir. Aks holda, DXSh mexanizmlarini amalga oshirish tadbirkorlik subyektlari tomonidan sherikchilik obyektlarini qisman yoki to'liq xususiy lashtirishga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qaraydigan bo'lsak, davlat bilan qo'shma loyihalarini amalga oshiruvchi xususiy kompaniyalarga keng vakolatlar berilgan, ya'ni: mulkchilik, foydalanish, qurilish, moliyalashtirish va boshqalar. Bunda Davlat asosiy e'tiborni infratuzilma obyektlarini qurish va ulardan foydalanish bo'yicha iqtisodiy vazifalardan ma'muriy va nazorat funksiyalariga bosqichma-bosqich o'tishni nazarda tutadi. Shuningdek, davlat va xususiy sherik o'rtasida investitsiya hajmining iqtisodiy jihatdan taqsimlanishi juda muhim vazifa hisoblanadi.

Transport infratuzilmasini rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish katta investitsiyalarni talab qiladi. Buni Rossiya ma'lumotlari misolida ko'rish mumkin. "Moskva-Qozon tezyurar avtomobil yo'li" VSM-2 loyihasining taxminiy qiymati 1,2 trln. rubl (2014 yil boshidagi narxlar darajasiga ko'ra), Kerch paromini qurish qiymati 226 milliard rublga baholangan³.

³ Добрин А.Ю- Экономическое обоснование механизмов государственно-частного партнерства в транспортном строительстве// ДИССЕРТАЦИЯ на соискание ученой степени кандидата экономических наук., Москва – 2016 г



19-rasm – DXSh transport qurilishi loyihalarida davlat va xususiy sherik ulushlarining nisbati⁴

Bunday katta xarajatlarga qaramay, transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha yirik loyihalar ham katta ijtimoiy daromadga ega hisoblanadi. Bugungi kunga kelib, mamlakatimizda DXSh asosida transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha bitta loyihaning o‘rtacha qiymati 593,21 mln dollarni tashkil etadi.

Ma’lumki, tijoriy ko‘rsatkichlar qoniqarsiz bo‘lgan taqdirda, xususiy sherik loyihaga qiziqish bildirmaydi. Agar loyiha davlat uchun katta ahamiyatga ega bo‘lsa, u holda investitsiya hajmidagi ulushini oshirishi, xususiy biznes hajmini kamaytirishi mumkin. Bu loyihaning tijorat samaradorligini oshiradi va xususiy sherik uchun biznesining jozibadorligini oshiradi⁵. Bu jarayon sxematik tarzda 19-rasmida ko‘rsatilgan.

Xususiy sherik uchun 5-7 yilgacha, ba’zi hollarda 10 yil ichida o‘zini oqlash muddati bo‘lgan loyihalar jozibador hisoblanadi. Shu bilan birga, davlat uchun yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni qoplash muddati 30 yildan ortiq bo‘lishi ham mumkin. Yuqorida takidlanganidek, davlat va xususiy sherik mablag‘larining nisbati 45% / 55% - 20% / 80% oralig‘ida bo‘ladi. Shu bilan birga, loyihalar investitsiyalar hajmi, iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari, amalga

⁴ Muallif chizmasi

⁵ Добрин, А. Ю. Привлечение внешних инвестиций в строительство инфраструктуры железнодорожного транспорта/ А. Ю. Добрин, А. В. Марцинковская // Транспортное строительство. 2012. № 3. – С. 26-29.

oshirish muddatlari hamda boshqalar bo‘yicha farqlanadi. "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJni rivojlantirish bo‘yicha DXSh da amalga oshirilgan loyiha investitsiyalarning soni 20-rasmida keltirilgan va shu asnosida tahlil amalga oshirilgan.


"O‘zbekiston temir yo‘llari" AJning ma’lumotlariga asosan tahlil qiladigan bo‘lsak, eng ko‘p investitsiyalar hajmi 2016 yilda kuzatilgan. Loyihalar soni esa 2017 yilda eng yuqori ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan. Bu shundan dalolat beradiki, investitsiyalar qiymati bilan loyihalar soni orasida bog‘liqligi yo‘q. Ya’ni loyihalarning soni emas, balki, uning qiymati hamda amalga oshirish muddati ahamiyatli degan xulosaga kelish mumkin.



20-rasm."O‘zbekiston temir yo‘llari" AJda investitsiyalar va loyihalar soni⁶

"O‘zbekiston temir yo‘llari" AJni rivojlantirish bo‘yicha DXSh asosida amalga oshirilgan loyiha investitsiyalarning manbalariga e’tibor qaratsak, jamiyatning o‘z mablag‘lari orqali loyihalar amalga oshirilgan.

⁶ "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJ ning ma’lumotnomasi asosida muallif ishlanmasi



21-rasm. 2022-yilda "O'zbekiston temir yo'llari" AJning moliyalashtirish manbai bo'yicha(%da)⁷

Yuqorida ilmiy izlanishning mantiqiy davomi sifatida davlat va xususiy sherik mablag'laridagi tarkibiy o'zgarishlarni miqdoriy baholash masalasi quyida ko'rib chiqiladi. Ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda tarkibiy o'zgarishlarni tavsiflash va baholash yuzasidan turli xil yondashuvlar mavjud. Bulardan biz tadqiqot xususiyatini inobatga olgan holda P.Vatnik tomonidan taklif etilgan “mutanosiblik koeffitsiyenti” foydalilaniladi va u quyidagicha topiladi⁸.

$$Prop [X, Y] = \frac{(\sum_i X_i Y_i)^2}{(\sum_i x_i^2)(\sum_i Y_i^2)} \quad (1)$$

P.Vatnikning “mutanosiblik koeffitsiyenti” turli tarkib yoki to'plamlarni baholash imkoniyatini beradi va ushbu koeffitsiyent quyidagilar bilan xarakterlanadi:

ixtiyoriy $a, b > 0$ uchun, $Prop [aX, bY] = Prop [X, Y]$ tenglik o'rinni bo'ladi;

mutanosiblik koeffitsiyentining barcha mumkin bo'lgan qiymatlari $0 \leq Prop [X, Y] \leq 1$ oraliqda yotadi.

⁷ "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ning ma'lumotnomasi asosida muallif ishlansasi

⁸ Акаев А., Михайлушкин А., Сарыгулов А., Соколов В. Анализ динамики отраслевой и технологической структуры экономик стран ОЭСР // Экономическая политика. 2009. №2. С. 116-127.

Mutanosiblik koeffitsiyenti, mazmunan etalon va baholanayotgan tarkiblar o‘rtasidagi yaqinlikning sonli o‘lchovini o‘zida ifoda etadi. Agar ular to‘liq o‘xhash bo‘lsa, u holda $Prop [X, Y] = 1$ bo‘ladi. Biroq, yuqoridagi tadqiqotda “etalon tarkib” yoki “etalonlik” mezoni tushunchalariga nisbatan yetarlicha nazariy izohlar berilmagan⁹.

Aynan, yuqoridagi (1) formula Ye.Gorlova tadqiqotlarida ham uchraydi va bunda $x_i - i$ – chi tarmoqning baholanayotgan mamlakat YaIMdagi ulushi, y_i – esa, xuddi shu i – chi tarmoqning etalon tarkibli YaIMdagi ulushi sifatida qayd etilgan. Mazkur tadqiqotda ham “etalonlik” va “etalon mamlakatlari” tushunchalariga nisbatan yetarlicha izohlar berilmagan. Ammo, ushbu izlanishda “IHRT (Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti) mamlakatlari” bo‘yicha shakillantirilgan milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibi etalon tarkib sifatida qabul qilingan¹⁰.

Ye.B.Oleynik ilmiy izlanishlarida yuqorida qayd etilgan (1) formula bo‘yicha x_i va y_i o‘zgaruvchilar vaqtning turli momentlaridagi tarkibning holatini ifodalovchi mos ko‘rsatkichlar hisoblanadi va bunda mutanosiblik koeffitsiyenti tarkibiy xarakterga ega ekanligi hamda u o‘zgaruvchilarning o‘zaro mutanosiblik darajasini aniqlab berishi ta’kidlanadi¹¹.

S.Xomidovning fikricha, “etalon tarkib” bu – “samarali shakillantirilgan tarkib” bo‘lib, baholanayotgan barcha tarkiblar u bilan solishtirilib ko‘riladi va mutanosiblik koeffitsiyentining olingan empirik qiymatlariga qarab turib, baholanayotgan tarkiblar qay darajada “samarali shakillantirilgan tarkib”ga nisbatan mutanosib ekanligi to‘g‘risida xulosa qilgan¹².

Yuqoridagi izlanishlarni va fikrlarni inobatga olgan holda, “etalon tarkib” vazifasini tadqiqot davridagi (2013-2022 yillar) alohida yillik "O‘zbekiston temir

⁹ Акаев А. Михайлушкин А., Сарыгулов А., Соколов В. Анализ динамики отраслевой и технологической структуры экономик стран ОЭСР // Экономическая политика. 2009. №2. С. 116-127.

¹⁰ Горлова Е. Оценка качества технологической структуры обрабатывающей промышленности. Научные основы мобилизации резервов роста и модернизации экономики: материалы III Форума молоды ученых – экономистов / под общей редакцией д.э.н. Садыкова А.М. / Ташкент: IFMR, 2014. С. 121-122.

¹¹ Олейник Е.Б. Формирование и реализация структурной политики в лесопромышленном комплексе региона (на примере Дальневосточного Федерального округа). Диссертация на соискание ученой степени доктора экономических наук. Владивосток – 2014. – 76c.

¹² Xomidov S.O. “Farmasevtika sanoati ishlab chiqarishidagi tarkibiy o‘zgarishlar va ularni baholash”. Iqtisodiyot va ta’lim. 2020 №2 105 - 112 b.

yo‘llari” AJ ning moliyalashtirish manbalari hajmidagi ulushlarining o‘rtachasidan tashkil topgan tarkib bajaradi.

Izlanishning tahlillariga ko‘ra, 2013 - 2022 yillar oralig‘ida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning moliyalashtirish manbalari tarkibida asosiy xususiy sherik mablag‘laridagi ulushi 74,17-92,94 foiz va davlat sherik mablag‘laridagi ulushi 7,06-25,83 foiz oralig‘ida turlicha rivojlanish tendensiyalariga ega bo‘ldi. Davlat sherik mablag‘laridagi tarkibining ulushi o‘zining eng quyi ko‘rsatkichi 2022 yilda (mazkur tarkibdagi ulushi 7,06 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, 2021 yilda esa, mazkur tarkibda eng yuqori ko‘rsatkichni 25,83 foizni tashkil etdi (22-rasm).



22-rasm. 2013 - 2022 yillar oralig‘ida “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ ning moliyalashtirish manbalari tarkibi


Olingen tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bo‘yicha moliyalashtirish manbalari tarkibida eng katta ulushni o‘z mablag‘lari tashkil etgan bo‘lsa (tarkibdagi o‘rtacha ulushi 82,23 foiz), mazkur tarkibda davlat budgeti (tarkibdagi o‘rtacha ulushi 17,77 foiz) tashkil etdi. “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bo‘yicha moliyalashtirish manbalari tarkibi uchun etalon qiymatlar 2013-2022 yillar oralig‘ida yillik moliyalashtirish manbalarining jami o‘z mablag‘lari hamda davlat budgetidagi ulushlarining o‘rtacha qiymatlari hisobidan shakillantirildi va quyidagi ko‘rsatkichlarni ifoda etdi (1-jadval).

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bo‘yicha moliyalashtirish manbalari uchun etalon qiymatlar

| “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bo‘yicha moliyalashtirish manbalari | Etalon tuzilma (o‘rtacha qiymatlar) |
|---|---|
| o‘z mablag‘lari | 82,23 |
| davlat budjeti | 17,77 |
| Jami: | 100,00 |

Manba: O‘zbekiston temir yo‘llari AJning ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Empirik tahlil natijalariga ko‘ra, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bo‘yicha moliyalashtirish manbalarining shakillantirilgan etalon tarkibi hamda 2013-2022 yillar davomida shakillangan moliyalashtirish manbalarining o‘rtasidagi mos mutanosiblik koeffitsiyentlarining qiymatlari quyidagi tendensiyani ifoda etdi (23-rasm).



**23-rasm. 2013-2022 yillarda shakllangan “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bo‘yicha moliyalashtirish manbalarining etalon tarkibga mutanosibligi
(koeffitsiyentda)¹³**

“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bo‘yicha moliyalashtirish manbalari tarkibining mutanosiblik koeffitsiyentlaridan ko‘rinib turibdiki, mazkur ko‘rsatkich eng yuqori qiymatini 2017 yilda (qaralayotgan yilda mutanosiblik koeffitsiyentining

¹³ Manba: (1) formula asosida muallif hisob-kitoblari.

qiymati 0,99998 ga teng) qayd etilgan bo‘lsa, eng quyi qiymatini esa 2022 yilda ya’ni 0,9814 ga teng qiymatga ega bo‘ldi.

Tadqiqotning tahlil natijalari jami “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ bo‘yicha moliyalashtirish manbalarining taqsimoti 2017 yilda shakllangan tarkibi boshqa yillarda shakllangan tarkiblariga nisbatan samarali ekanligini tasdiqladi. Chunki, mutanosiblik koeffitsiyentining mazkur yilda olingan empirik qiymatlari moliyalashtirish manbalarining etalon tarkibiga juda yaqin ekanligini ko‘rsatadi.

Tizimli iste’mol kooperatsiyali tashkilotlarining moliyaviy-iqtisodiy va ijtimoiy faoliyati ko‘p qirralidir. Bunday tashkilotlarning boshqaruva samaradorligi darajasini oshirishda tashkilotlarning moliyaviy, iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatining samaradorligini baholashni ta’minlaydigan omillarni hisobga olish zarur. Boshqaruvni ilmiy usullaridan, xususan, tahlil, rejalashtirish va boshqarishning iqtisodiy va statistik modellaridan foydalanish orqali ushbu masalani hal qilish mumkin.

Bundan tashqari, modelga kiritilgan ko‘rsatkichlar qiymatlarining kutilgan darajasiga erishish uchun qarorning iqtisodiy maqsadga muvofiqlik darajasini baholash uchun ishlataladi.

Shuningdek, ko‘pincha ko‘rsatkichlar faqat bilvosita eng muhimlarini aks ettiradi. Shu bilan birga o‘rganilayotgan iqtisodiy tizimning xususiyatlarini bevosita kuzatish hamda o‘lchash uchun mos emasdir. Korxonalarda iqtisodiy tizimining faoliyatini matematik tavsiflash uchun uning ko‘p qirrali faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlash yo‘llarini topish kerak hamda uning mohiyati ko‘p sonli boshlang‘ich ko‘rsatkichlarni kichikroq, ammo ko‘proq sig‘imli raqam orqali ifodalashdan iborat bo‘lishi lozim. Axborotni bunday konsentratsiyalash vositasi iqtisodiy va statistik usullar, xususan, omillarni tahlil qilish usullari hisoblanadi.

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda bevosita yuqorida ta’kidlanganidek, uning hajmi muhim ahamiyat kasb etib va uni tahlil qilishda mamlakatning iqtisodiy tarmoqlari bilan bog‘liqligi⁺-korrelyatsion-regression tahlil orqali amalga oshiriladi. Bunda birinchi bosqichda korrelyatsiya koeffitsiyenti formulasi orqali omillar orasidagi bog‘liqlik tekshiriladi.

Korrelyatsiya koeffitsiyenti formulasi¹⁴:

$$r_{x/y} = \frac{\bar{x} \cdot \bar{y} - \bar{x} \cdot \bar{y}}{\sigma_x \cdot \sigma_y} \quad (2)$$

Bunda r ya'ni, korrelyatsiya koeffitsiyenti $-1 \leq r \leq 1$ oralig'ida bo'ladi. $0 \leq r \leq 1$ ekanligi kuzatilsa to'g'ri bog'lanish va $-1 \leq r \leq 0$ bo'lsa, teskari bog'lanish mavjud. Agar $r=0$ bo'lsa, omillar o'rtasida bog'lanish mavjud emas, shu bilan birga $r=1$ bo'lsa, funksional bog'lanish mavjud.

Ko'plikdagi korrelyatsiya koeffitsiyenti formulasi:

$$R_{y/x_j} = \sqrt{1 - \frac{\sum_{i=1}^n (y_i - \hat{y})^2}{\sum_{i=1}^n (y_i - \bar{y})^2}} \quad (3)$$

Tadqiqot jarayonida ko'plikdagi korrelyatsiya koeffitsiyentini modelning reallikka yaqinligi va aniqlilik ehtimolini ifodalashda foydalaniladi. "O'zbekiston temir yo'llari" AJda davlat-xususiy sherikchiligi asosida amalga oshirilgan loyiha investitsyalari miqdorini va iqtisodiyotning tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik korrelyatsiya koeffitsiyenti orqali baholanadi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanib(1-ilova), 2-formulani Stata14 amaliy paketi orqali tahlilni amalga oshirish mumkin.

| | y | x3 | x6 |
|-----------|---------------|---------------|---------------|
| y | 1.0000 | | |
| x3 | 0.8111 | 1.0000 | |
| x6 | 0.7158 | 0.7402 | 1.0000 |
| | 0.0199 | 0.0144 | |

24-rasm. Pirson korrelyatsiya koeffitsiyentlari¹⁵

¹⁴ Sabirov, H. N., Abduvaliyeva, Z., & Kh, T. (2022). Econometric modeling of business processes based on time series data. Экономика и социум, (7 (98)), 102-110.

¹⁵ Muallif hisob-kitob ishlanmasi

Tahlil natijalariga ko‘ra, "O‘zbekiston temir yo‘llari" AJda davlat-xususiy sherkchiligi asosida amalga oshirilgan loyiha investitsyalari miqdoriga (y) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi (x3) va savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (x6) orasida kuchli bog‘liqlikni ko‘rish mumkin. Korrelyatsion tahlil natijasida jami 8 ta ta’sir etuvchi omillar (ya’ni iqtisodiyotning tarmoqlari) orqali amalga oshirildi va ular orasida asosiy yuqorida ta’kidlangan o‘zgaruvchilar qoldi. Asosiy omilga (y) ta’sir etuvchi omillar (x3 va x6) bilan regression tahlil amalga oshirildi.

| Source | SS | df | MS | Number of obs | = | 10 |
|----------|------------|----|------------|---------------|---|--------|
| Model | 3531.00276 | 2 | 1765.50138 | F(2, 7) | = | 7.69 |
| Residual | 1606.16652 | 7 | 229.452359 | Prob > F | = | 0.0171 |
| Total | 5137.16928 | 9 | 570.796586 | R-squared | = | 0.6873 |
| | | | | Adj R-squared | = | 0.5980 |
| | | | | Root MSE | = | 15.148 |

| y | Coef. | Std. Err. | t | P> t | [95% Conf. Interval] |
|-------|-----------|-----------|-------|-------|----------------------|
| x3 | 6.791625 | 3.431653 | 1.98 | 0.088 | -1.322944 14.90619 |
| x6 | 1.399366 | 1.722991 | 0.81 | 0.443 | -2.67486 5.473592 |
| _cons | -751.2998 | 252.0231 | -2.98 | 0.020 | -1347.24 -155.3597 |

25-rasm. Regression tahlil natijasi¹⁶

Tahlil natijasiga asosan LEMR (linear equation multiple regression) model tuzib olindi va modelni 3-formulaga asosan qiymati 0,68 ga tenglashdi. Bu esa model reallikka 68% yaqinligini hamda modelning ahamiyatligini ifodalovchi boshqa testlar ham past qiymatni tashkil etmoqda va bu model salbiy natjalarga erishganini ifodalaydi. Shu sababli—regression tahlilda chiziqsiz modellardan foydalananish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunda darajali funksiya yordamida, uni chiziqli shaklga keltirishda Log-log modeli asosida quyidagicha shakilda bo‘ladi:

$$Ln y = Ln \alpha + \beta_1 Ln(x3) + \beta_2 Ln(x6) \quad (4)$$

¹⁶ Muallif Stata14 amaliy paketidan foydalangan holdagi hisob-kitoblari

Stata14 amaliy paketi yordamida bir necha chiziqsiz modellar hosil qildik ular ichida optimal holatdagisi bir omilli chiziqli (OLS model) regression model hisoblandi. Bu model asosan quyidagi shaklda ifodalanadi:

$$y = -814,1217 + 8.854769 * x3 + \varepsilon \quad (3.4)$$

| Source | SS | df | MS | Number of obs = 10 F(1, 8) = 15.38 Prob > F = 0.0044 R-squared = 0.6579 Adj R-squared = 0.6151 Root MSE = 14.822 | | | |
|----------|------------|-----------|------------|--|----------------------|-----------|--|
| | | | | | | | |
| Model | 3379.65046 | 1 | 3379.65046 | | | | |
| Residual | 1757.51882 | 8 | 219.689853 | | | | |
| Total | 5137.16928 | 9 | 570.796586 | | | | |
| | | | | | | | |
| y | Coef. | Std. Err. | t | P> t | [95% Conf. Interval] | | |
| x3 | 8.854769 | 2.257597 | 3.92 | 0.004 | 3.648742 | 14.0608 | |
| _cons | -814.1217 | 234.7014 | -3.47 | 0.008 | -1355.344 | -272.8993 | |

26-rasm. OLS model natijasi¹⁷

Hosil bo‘lgan OLS modelni tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, modelda qatnashayotgan o‘zgaruvchi va o‘zgarmas t-styudent qiymatiga asosan ishonchli bo‘ldi. Modelning ahamiyatligini ifodalovchi F-fisher=15,38 qiymati ham o‘z navbatida (p-value=0,0044) ijobiy qiymatga erishdi. Model nuqtalari real qiymatlarga umumiy 66% yaqinligini ifodalaydi.

¹⁷ Muallif Stata14 amaliy paketidan foydalangan holdagi hisob-kitoblari